

TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR VA ULARNING TEXNOLOGIK UZATMALARGA TA'SIRI

¹**Safarova Maftunabonu**

¹Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti

Email adres: maftunasafarova@gmail.ru

Ilmiy rahbar: ²**D.S.Xamzayeva**

²Termiz davlat universiteti, "Turizm" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: *ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ularning texnologik uzatmalarga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Dastlab, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga olib kiriladigan ilg'or texnologiyalar orqali qanday ijobiy o'zgarishlar keltirishi mumkinligi ko'rib chiqiladi. Keyinchalik, texnologik uzatmaning shakllari – ya'ni, ishlab chiqarish jarayonlari, menejment tajribalari, innovatsion faoliyat va kadrlar salohiyatining oshirilishi orqali amalga oshishi yoritiladi. Maqolada O'zbekiston tajribasi misolida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning texnologik rivojlanishga ta'siri amaliy ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologik uzatmani rag'batlantirish bo'yicha takliflar keltirilgan. Tadqiqot natijalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini strategik ravishda boshqarish va texnologik mustaqillikni ta'minlashda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, texnologik uzatma, innovatsiyalar, ishlab chiqarish, bilim almashinuvi, menejment, texnologik taraqqiyot, O'zbekiston, iqtisodiy o'sish, kadrlar tayyorlash, xalqaro kompaniyalar, bozor integratsiyasi, ilg'or tajriba, texnologik mustaqillik, sarmoya siyosati.*

ПРЯМЫЕ ИНОСТРАННЫЕ ИНВЕСТИЦИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ТРАНСФЕР

¹**Сафарова Мафтунабону**

¹Термезский университет экономики и сервиса

Магистр направления Экономика

Адрес электронной почты: maftunasafarova@gmail.ru

Научный руководитель: ²Д.С.Хамзаева

²Термезский государственный университет, старший преподаватель кафедры
«Туризм», PhD

Аннотация: в данной статье анализируются прямые иностранные инвестиции и их влияние на технологический трансфер. Сначала рассматривается, как прямые иностранные инвестиции могут принести положительные изменения в национальную экономику за счет внедрения передовых технологий. Затем выделяются формы технологического трансфера, а именно, через развитие производственных процессов, управленческих практик, инновационной деятельности и кадрового потенциала. В статье анализируется влияние прямых иностранных инвестиций на технологическое развитие с использованием опыта Узбекистана на основе практических данных. Также вносятся предложения по стимулированию технологического трансфера. Результаты исследования имеют научное и практическое значение в стратегическом управлении потоком прямых иностранных инвестиций и обеспечении технологической независимости.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, технологический трансфер, инновации, производство, обмен знаниями, управление, технологическое развитие, Узбекистан, экономический рост, подготовка кадров, международные компании, рыночная интеграция, передовой опыт, технологическая независимость, инвестиционная политика.

FOREIGN DIRECT INVESTMENTS AND THEIR IMPACT ON TECHNOLOGICAL TRANSFER

¹Safarova Maftunabonu

¹Termez University of Economics and Service, Master's Degree in Economics

Email address: maftunasafarova@gmail.ru

Scientific supervisor: ²**D.S.Khamzayeva**

²Termez State University, Senior Lecturer, Department of "Tourism", PhD

Abstract: *this article analyzes foreign direct investments and their impact on technological transfer. First, it considers how foreign direct investments can bring positive changes to the national economy through the introduction of advanced technologies. Then, the forms of technological transfer are highlighted - namely, through the development of production processes, management practices, innovative activities and human resource capacity. The article analyzes the impact of foreign direct investment on technological development using the experience of Uzbekistan on the basis of practical data. Also, proposals are made to stimulate technological transfer. The results of the study are of scientific and practical importance in strategically managing the flow of foreign direct investment and ensuring technological independence.*

Keywords: *foreign direct investment, technological transfer, innovation, production, knowledge exchange, management, technological development, Uzbekistan, economic growth, personnel training, international companies, market integration, best practices, technological independence, investment policy.*

Kirish

Globalizatsiya va iqtisodiy integratsiya jarayonlari bugungi kunda mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy o‘shishni tezlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish

texnologiyalarini, balki boshqaruv tajribalari, innovatsion yondashuvlar va inson kapitalini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, iqtisodiy islohotlar orqali bozor iqtisodiyotiga o'tish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va texnologik modernizatsiyani amalga oshirishga alohida e'tibor qaratdi. So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida, mamlakatda investitsion muhit yaxshilanib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Xususan, energetika, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari va qishloq xo'jaligi sohalarida xorijiy investorlar bilan hamkorlikda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa, texnologik uzatma jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlari bir necha shakllarda amalga oshadi. Bular qatoriga ishlab chiqarish jarayonlariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish kiradi [1]. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatilib, bilim va tajriba almashinuvi yuzaga keladi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston misolida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlari bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Masalan, Xitoy bilan hamkorlikda tashkil etilgan sanoat zonalari va qo'shma korxonalar orqali zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari joriy etilmoqda. Shuningdek, IT Park Uzbekistan kabi texnologik markazlar orqali axborot texnologiyalari sohasida xorijiy tajriba va bilimlar o'zlashtirilmoqda.

Biroq, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlarida ba'zi muammolar ham mavjud. Xususan, mahalliy korxonalarining texnologik o'zlashtirish salohiyati pastligi, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va intellektual mulk huquqlarining himoyasi bilan bog'liq muammolar texnologik uzatma samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, TXXI oqibatida mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini yo'qotishi, ya'ni "crowding out" effekti yuzaga kelishi xavfi ham mavjud. Ushbu maqola, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlarini chuqur tahlil qilish, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini baholash va mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan. Maqolada, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va texnologik uzatma o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, texnologik uzatma shakllari, O'zbekiston tajribasi va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologik uzatma samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlarini chuqur o'rganish, uning O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini baholash va mavjud muammolarni aniqlashdir. Shuningdek, texnologik uzatma samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali, mamlakatning texnologik mustaqilligini ta'minlashga hissa qo'shishdir.

Material va metod

Tadqiqotlar davomida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ilmiy mushohada usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Xorijiy sarmoyaning iqtisodiy mohiyati xorijiy investorlarning daromad olish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyotiga kapital qo'yishidir. Chet el investitsiyalari turli shakllarda bo'lishi mumkin: to'g'ridan-to'g'ri (biznesda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etish yoki kompaniyaning aksiyalarini sotib olish) yoki portfel (kompaniya boshqaruviga sezilarli ta'sir ko'rsatmasdan aksiyalar yoki obligatsiyalarni sotib olish).

Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotida bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Kapitalning kirib kelishi. Xorijiy investitsiyalar qo'shimcha moliyaviy resurslarga kirishni ta'minlaydi, bu ko'pincha ichki kapital taqchil bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda muhim ahamiyatga ega.

2. Ishlab chiqarish quvvatlarining ortishi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar odatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish yoki mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish bilan birga keladi [3]. Bu iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratishga va aholi turmush darajasini oshirishga olib keladi. Ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi - bu iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining oshishiga olib kelishi bilan birga infratuzilmaning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda xorij sarmoyasi asosiy o'rin tutib, korxonalar rivojiga, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilishga katta ta'sir ko'rsatadi.

3. Texnologiya va bilimlarni uzatish. Xorijiy kompaniyalar ko'pincha ilg'or texnologiya va boshqaruv tajribasini olib kelishadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsiyalarni yaxshilashga yordam beradi.

Texnologiya va bilim transferi – bu, ilg'or texnologiyalar, innovatsiyalar va boshqaruv tajribasini bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazish jarayonidir. Chet

el investitsiyalari kontekstida transfer xorijiy kompaniyalar o'zlarining ilg'or texnologiyalari va operatsion amaliyotlarini qabul qiluvchi mamlakatga joriy etganda, mahalliy korxonalarining mahsuldorligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam berganda sodir bo'ladi.

4. Soliq tushumlarining ortishi. Boshqa davlatda faoliyat yuritayotgan xorijiy

kompaniyalar soliq to'laydi, bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshiradi. Soliq tushumlarining ko'payishi xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakatga asosiy iqtisodiy ta'siridan biridir. Mahalliy iqtisodiyotga sarmoya kiritayotgan xorijiy kompaniyalar korxonalar, ish o'rinlari va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etadi, bu esa soliq bazasining o'sishiga va davlat daromadlarining oshishiga olib keladi.

5. Xalqaro aloqalarni mustahkamlash[8]. Chet el investitsiyalari mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa eksport va importni diversifikatsiya qilishga, shuningdek, bir iqtisodiy sherikga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra quyidagi xulosa va takliflarni berish maqsadga muvofiq:

1. **Xorijiy investitsiyalar oqimini strategik tarmoqlarga yo'naltirish zarur.** Bunda, ayniqsa, yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat, raqamli texnologiyalar va yashil energetika kabi tarmoqlar ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmog'i lozim.

2. **Investorlarga qulay muhit yaratish uchun yagona "investorlar eshigi" (one-stop-shop) tizimi joriy etilishi kerak.** Bu tizim orqali investor

barcha ruxsatnomalar, huquqiy maslahatlar va soliq imtiyozlarini yagona markaz orqali olishi mumkin bo‘ladi.

3. **Mahalliy xodimlar malakasini oshirishga yo‘naltirilgan talab majburiyati joriy etilishi lozim.** Ya’ni, xorijiy kompaniyalar faoliyat yuritayotgan sohada mahalliy kadrlarni o‘qitish va ularni yuqori lavozimlarga tayyorlash bo‘yicha rejalarni taqdim etishlari zarur.

4. **Xorijiy sarmoyalarni monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish lozim.** Investitsiya loyihalarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligini muntazam o‘rganish orqali siyosatni aniq va maqsadli yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

5. **Xavfsiz va barqaror investitsiya muhiti uchun investorlar huquqlarini kafolatlovchi qonunchilikni yanada mustahkamlash tavsiya etiladi.** Sud tizimining mustaqilligi va shaffofligi xorijiy investorlar ishonchini oshiradi.

6. **Hududiy investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish zarur.** Har bir viloyat yoki iqtisodiy zona o‘ziga xos salohiyat va ehtiyojlar asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rejasiga ega bo‘lishi lozim.

7. **Xorijiy investitsiyalar asosida mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish muhim.** Bu orqali texnologiya uzatish, bilim almashuvi va ichki bozorning integratsiyasi kuchayadi.

8. **Xorijiy investitsiyalarning ekologik ta’sirini baholash majburiy holga aylantirilishi kerak.** Barqaror rivojlanish tamoyillariga mos holda, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan loyihalar ustuvor ravishda qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov, Q. X. (2019). Iqtisodiy nazariya asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
2. Karimov, I. A. (2016). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Jo'rayev, M. T. (2020). Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va rivojlanish yo'nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot.
4. Egamberdiev, O. M. (2021). O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faoliyati: holati va istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va Ta'lim.
5. Tursunov, B. O. (2018). Sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlanish. Samarqand: SamDU nashriyoti.
6. Muminov, N. N. (2017). Makroiqtisodiy barqarorlik va rivojlanish strategiyalari. Toshkent: Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi.
7. Norqulov, D. I. (2020). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
8. Tashkenbaev, N. U. (2019). Mehnat bozori va bandlik siyosati O'zbekistonda. Toshkent: Mehnat va Ijtimoiy Munosabatlar Akademiyasi.
9. Qodirov, X. A. (2016). Moliyaviy menejment asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot.
10. Abdukarimov, B. B. (2021). O'zbekistonning tashqi savdo siyosati va rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: TDIU nashriyoti.
11. Raximov, M. T. (2018). O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi va uni ta'minlash yo'llari. Toshkent: Fan.